



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 6.2.1 2023



- Xozirda o'quv-tarbiya muassasalari xilma-xilligidan kelib chiqib ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoshlar kamolotini ta'minlovchi ta'lif-tarbiyaviy shartnomasi va kelishuvlar asosida hamkorlikda yagona pedagogik jarayonni mazmunan boyitish;

- O'quv-tarbiya muassasalari, ota-onalar va jamoatchilik hamkorligini amaliy jihatdan yuqori saviyada olib borishga erishish;

- Jamiyat va tabiatdagi go'zallikni his ettirish ko'nikmalarini tarkib toptirish orqali ma'naviy muhofaza qila olish imkonini yaratish;

Dunyoda bilim va ma'rifatning chegarasi yo'q. Har bir narsadan unumli ya'ni foydali bilimlarga vaqt ajratish, yaxshi-yomon va aralash-quralash bo'lib yotgan bu hayotda avvalo yaxshi narsalar tanlashga intilish lozim. Buning uchun esa u yomonning nima uchun yomonligi, yaxshining yaxshilij sababini bilish joizdir. Inson, fikri va didi, tuyg'ulari o'sib-o'zgarib borgani sari u yaxshi narsalar orasida ham eng yaxshisini tanlashga harakat qiladi. Shu tarzda uning fikri va tuyg'ulari sog'lom bo'lgan inson esa jiddiy fikrlay oladi, mustaqil bo'ladi, ko'p adashmaydi.

Mustaqilligimiz, Prezident va xukumatimizning mamlakatimizni taraqqiy etishi borasidagi to'xtovsiz sa'y-harakatlari tufayli hozirda taxlikali bir zamonda respublikamizda tinchlik, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik hukm surmoqda va taraqqiyotga yuz tutmoqda. Respublikamiz fuqoroligining qonuniy huquqva erkinliklari konstitutsiya asosida ta'minlagan. Xar bir fuqaro qayerda bo'lishidan qat'iy nazar huquqiy jihatdan o'z o'rniga ega bo'lgan shaxs fuqaro sifatida mamlakat ichkarisi va tashqarisida davlat himoyasida bo'lishi qonunlarimizda va amalyotda o'z ifodasini topgan. O'z navbatida fuqorolarimizning ongli, faol pozitsiyaga ega bo'lishlari o'z haq-huquqlarini bilish, unga amal qilish hamda burchga sadoqat hislariga ega bo'lishlarni taqozo etadi.

Adabiyyotlar:

- 1."Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" I. A. Karimov Toshkent "Ma'naviyat" 2008
2. "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" M. Qarshiboyev, S.Nishanova.7-sinf. Toshkent "Ma'naviyat" 2007
3. "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida hizmat qilish- eng oliy saodatidir" I. A. Karimov Toshkent "O'zbekiston" 2013
- 4.Ma'naviyat asoslari E. Umarov, M. Abdullayev Cho'lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiyot uyi Toshkent 2006

REZYUME

Maqolada yoshlarni ongini salbiy ta'sirlardan saqlash borasida turli qarashlar va ta'limiy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье говорится о различных взглядах на защиту сознания молодежи от негативных воздействий и способах формирования учебно-воспитательного иммунитета.

SUMMARY

The article talks about different views on protecting the minds of young people from negative influences and ways of forming educational and educational immunity.

O'QUVCHILARGA XONANDALIK ASARLARINI ERKIN VA IFODALI KUYLATISH USLUBLARI

**Qayumov J.S.
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti**

Tayanch so'zlar: musiqa o'qituvchisi, kasbiy mahorat, xonanda, ma'naviyat, musiqa madaniyati.

Ключевые слова: учитель музыки, профессиональное мастерство, певец, духовность, музыкальная культура.

Key words: music teacher, professional skill, singer, spirituality, music culture.

Bolalikda o'smirlikka o'tish yoshida bolalar faollashadilar, kuch-quvvatlari o'sadi. Bolalarda did, havas va biror narsaga nisbatan qiziqish orta boshlaydi. 11-12 yoshga kelib

bolalarning ovozi kuchayadi, yorqin va jaranglab chiqadi, tembrlari aniqlanadi, ovoz pardalari to‘liq shakllangan bo‘ladi. Bunda baland va past ovozlarning harakterli hususiyatlarini ko‘rish mumkin. Bu narsa qiziqarli qo‘sishq repertuarini tanlash, ovozning yaxshi va ifodali jaranglanishiga erishish, shu bilan birga o‘quvchilarni mazkur predmetga qiziqtirish, ularda havas uyog‘otish imkonini beradi.

O‘quvchilarga musiqiy tarbiya berishning asosi qo‘sishq kuylashdir. Chunki, musiqaga bo‘lgan qobiliyatni o‘sirish qiziqishni oshirish vazifasi o‘quvchilarning o‘z faoliyati jarayonida muvofiqiyatl bajariladi.

Chunki kuylash jarayonida o‘quvchilarning oldingi sinflarda olgan vokal-xor malakalari takomillashadi, bu malakalar ashulaning to‘g‘ri va ta’sirli aytishini ta’minlaydi. Bolalar ovozining yaxshilanishiga va parvarish qilinishiga yordam beradi. Talaffuni aniq va ravshanligini qo‘sishqning tushunarli bo‘lishiga yordam beradi, mazmunli ijroga ko‘maklashadi. Bir necha tovushni bir tonda kuylashga, eshitishda bir yoki ikki ovozni sezish, ajrata bilish, ikki ovozli kuylashni rivolantirishga olib keladi. Shuni aytish lozimki, 5-sinf vokal-xor ishlari ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Chunki, boshlang‘ich sinflarda yetarlicha kuylash malakalari shakllantirilmagan bo‘lsa, ancha murakkab qo‘sishq repertuarini kuylash bolalar uchun qiyin bo‘ladi. Oddiy qo‘sishqlar esa, ularda qiziqish uyog‘otmaydi. Shu sababli, o‘qituvchi oldida ovoz mashqlari va qo‘sishq repertuarini to‘g‘ri tanlash masalasi turadi.

Agar o‘quvchilar 5-sinfgacha ovoz mashqlari va qo‘sishq kuylamagan bo‘lsalar, ularda “jarangli kuylaymiz” jiring-jiring, “Du-du-du” va boshqa mashqlarni berish “xavfli”, bolalar kula boshlaydilar. Atayin noto‘g‘ri kuylaydilar. Shuning uchun avvalo ovozlarni sozlashning muhimligi, ya’ni ovozlarni shu holatga keltirilishi lozimligini ko‘rsatib berish buning uchun kuyi jihatdan bolalarga yoqadigan, qiziqish uyg‘otadigan mashqlar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Kuylanadigan mashqlarning hususiyatlari shundaki, ularning har biri o‘zining o‘quv vazifasiga ega va e’tibor talab etadi. Masalan: kontelinali kuylashni rivojlantirish. Kontelinali kuylashni rivojlantirish maqsadida gammali mashqlarni major va minor gammalarini asosan yuqorida pastga harakatlantirib kuylash faol epchil tovush hosil qiladi. Gammalarni yirik cho‘zimlardan oldik. Yarimalik, keyin butun cho‘zimlarda kuylash foydalidir.

O‘qituvchi tovushlarining cho‘zilib, bog‘lanib kuylanishini unlilarning to‘g‘ri shakllanishini kuzatib boradi. Jarangli ovoz hosil qilishiga “i, a” unlilari ketma-ket kelgan mashqlar yordam beradi.

O‘quvchilarni dinamik tuslar bilan kuylashga o‘rgatish, ovozlarining haraktchanligini rivojlantirish uchun quyidagi mashq foydalidir: bir tovushni o‘zida ovozni kuchaytirish va kuchsizlantirib kuylash (unliga yoki og‘izni yopib).

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ovozni kuchaytirib kuylash kuchsizlantirishga nisbatan yaxshiroq aytildi. Kuchsizlantirish (ouitinindo) esa notejis aytildi.

Kontrast dinamikada kuylashga “Aks sado” (oldin bir ovozli, keyinchalik ikki ovozli) mashqlarini berish mumkin. Bunday mashqlar oldin baland tovush bilan, keyin past tovush bilan aytildi.

Qo‘sishchilik nafasini rivojlantirishga yordam beradigan mashqlardan biri: bitta tovush kuylanadi va shu bilan birga uchgacha sanaladi: keyin yana nafas olinib, keyingi tovush kuylanadi to‘rtgacha sanaladi. Shunday qilib, hisobni sakkizgacha olib borish lozim. O‘quvchilarning nafasini oxirigacha yetkazishga e’tiborni oshiriladi.

Vokal – xor mashqlari orqali unli tovushlarni aniq talaffuz etish, vokal ijro uslublaridan foydalanish, har bir ta’ktning to‘g‘ri jarangiga erishish

Mashq “Folio”, “Forma”, “Volyo”, “Valyo” so‘zlaridan arpedjio holatda kuylatiladi. Barcha ishchi ovoz diapazoni pastga va yuqoriga to‘liq ovoz bilan aniq “o” va “a” yopiq unli tovush jarangdorligida kuylanadi.

Biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, 5-sinf yil va chorak mavzulari qo‘sishq repertuarida qismangina yoritiladi. Shu kamomadni to‘ldirish maqsadida musiqa o‘qituvchisi vokal mashqlari mazmuniga, vokal simfonik asarlar opera va balet asarlarining eng yorqin musiqiy fragmentlarini kiritilishi foydadan holi bo‘lmaydi.

Buning bir qator qiyinchiliklari ham bor: intonatsion jihatdan qiyin joylar ritmik yetarli darajada tugallangan kuychan va qulay bo‘lishi lozim (ko‘pincha qismlarni transpozitsiya qilishga to‘g‘ri keladi).

V.Monsartning “Sehrli nay” operasidan “Qayerdan tarqalmoqda bu totli navo” qo‘srig‘i, S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidan Maysara, Oyxon, Cho‘pon ariyalari, P.Chaykovskiyning “Oq qo‘sh ko‘li” baletidan “Kichik oq qushchalar” temasi kabi ko‘pgina badiiy jihatdan yuksak qiymatga ega bo‘lgan asarlardan melodiyalar kuylash kompozitorlik ijodini o‘rganish va musiqiy idrok etishga bo‘lgan qiziqish va muhabbatini yanada o‘stiradi.

Musiqa madaniyati darsida qo‘sinq o‘rganish – musiqiy badiiy jarayondir. Uning birinchi lahzasidanoq hissiyot va badiiylik birlashadi. Bunda qo‘sinq obrazini badiiy talqinini yoritilishi asosiy vazifa qo‘sinq bo‘lib, ijroning vokal-texnik uslublari unga bo‘yso‘nadi.

5- sind o‘quvchilarни yosh hususiyatiga juda xarakatchan, besabr bo‘ladilar. Shuning uchun qo‘sinq aytishda uzoq va davomiyli ishlash imkoniyati yetarli emas. Qo‘sinq o‘rganish jarayoni bolalar qiziqishini o‘stirish, ularda nutq madaniyati faolligini rivojlantirish va tashabbuskorlikni yuzaga keltirish ish samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Buning uchun o‘qituvchi qo‘sinqni avval o‘zi ifodali qilib ijob etib beradi (yoki gramyozuvda ko‘rsatadi) asarning yaratilish tarixi, qo‘sinq mualliflari ayrim hususiyatlari, hayotiy ahamiyatlari haqida qisqa bayon etadi.

Suhbat o‘zi bilan qo‘sinqning kayfiyati, obrazi doirasi, musiqa nutqi elementlarining ifodaviyligi, hamda ijob usullarini umumlashtiradi. Ba’zi qo‘sinqlari juda ham oddiy va qulay bo‘lganligi sababli, o‘qituvchi faqatgina ifodali ijrogina bilan cheklanishi mumkin. Mazmunan murakkabroq va xarakatchan qo‘sinqlarda matnning o‘zini o‘qib berish mumkin yoki qo‘sinqning kuy ritmida alohida o‘rganish maqsadga muvofiq. Sekin, cho‘zib aytildigan qo‘sinqlarda so‘zlarni alohida bir tekis kuylashni taqozo etadi. Kuyda epizodik tarzda uchraydigan sakramalar katta va kichik sekundali tersiyali xarakatlar ritmik murakkabliklar hosil qiluvchi bir necha turdagi sinkopalarining uchrashi vokal ishlariga e’tibor va qunt talab etadi.

Intonatsion ritmik nutqni rivojlantirishdagi diksion qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- Asarning matnini kuysiz talaffuz qilib aytish.
- Kuyni yuqori do pardalarini engil xarakatchan kuylash.
- Jumlalar yakunlangan tovushlarni oxirigacha bir nafasda cho‘zib turish va keyingi jumlanı yangi nafasda yumshoq “ataka” bilan ohista boshlash.
- Kuylash jarayonida albatta nota yozuvlaridan foydalanish, o‘quvchi tomonidan ko‘rsatiladigan dirijyorlik ifolarining aniq va xarakterga mos bo‘lishi, qo‘sinqning erkin va ifodali sof ijrosini asosiy omillaridandir.

Hozirgi kunda yangi pedagogik texnalogiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Chunki pedagogik texnalogiya va interfaol metodlar o‘quvchi yoshlarni yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Quyida keltirilgan interfaol usullardan dars samaradorligini oshirish maqsadida musiqa madaniyati darslarida foydalanish mumkin.

“Pantomima” Hamma doira shaklida o‘tiradi. O‘qituvchi o‘quvchilarga musiqa cholg‘u asboblarining rasmlarini tarqatadi. O‘quvchilarning vazifasi ushbu cholg‘u asboblarida qanday holatda kuy ijob etilishini harakatlar bilan ko‘rsatishdan iborat. Qolganlar esa, nazorat qilib, qaysi cholg‘u asbobi ko‘rsatilayotganligini topishlari kerak. Masalan: Rasmda doira asbobi berilgan bo‘lsa, suratda o‘tirgan holatda qo‘l harakati bilan ko‘rsatib beradi. Doyra rasmi bo‘lsa, tik turgan holatda doirani tasvirlashi kerak. Karnay, surnay, g‘ijjak, rubob, dutor, fortepiano, cholg‘u asboblari va hokazolar –mos qo‘l xarakatlari bilan tasvirlanadi. Shunday qilib, 5-6 ta o‘quvchining chiqishidan so‘ng fikr-mulohazalar o‘rganiladi. “Marhamat, davom ettiring” Takrorlash darslari uchun.

Sinf ikki guruhga bo‘linadi. O‘tilgan qo‘sinqlardan birini 1-guruh boshlab beradi, 1 kupletdan kuylanadi. 2-guruh, davom etadi. G‘olib guruh 2- qo‘sinqni ham tanlab ijro etadi. 3 ta qo‘sinqdan so‘ng g‘olib guruh aniqlanadi.

“Bilog‘onlar ko‘chasi” usuli. Bu yerda xar bir guruhga bastakorlarning portiretlat ko‘rsatiladi. O‘quvchilar bastakorlarning hayoti, faoliyati, qo‘shiqlaridan parcha, yozgan qo‘shiq, kuy, asarlarining nomini aytib berishlari kerak.

“Mahorat ko‘chasi”. Bu yerda xar bir guruh huquqiy mavzudagi, hususan adolat, haqiqat, odillik, vatanparvarlik, insonparvarlik, diyonat, vijdon haqidagi tuyg‘ular haqidagi yoki ayollarga mos bahor fasli qo‘shiqlarini, mehrjon qo‘shiqlari, yangi yil to‘g‘risidagi qo‘shiqlarni kuylash mumkin.

“Tarozi” usuli. Mazkur usul o‘tgan mavzularni ko‘proq dalillar keltirish asosida qisqa va lo‘nda ifodalab, boshqa guruh ishtirokchilarini ishontirgan guruh javobi tarozida vazmin kelib g‘olib chiqadi.

O‘quvchilarga uch hil kartichka tarqatiladi. Bu kartichkalarda o‘quvchilar bilgan qo‘shiqlar nomi yozilgan. Har bir qo‘shiqdan parcha tinglab, ushbu suratga mos kuylarni yoki qo‘shiqlarni eslab, uning ta’rifi va mazmuni ochib beriladi. Qaysi guruh tez va chaqqon dalillar keltirsa va davomini kuylab bersa, shu guruh g‘olib hisoblanadi.

O‘g‘il bolalar tomog‘ida ovoz boylamlar yo‘g‘onlashadi, qizaradi, qirg‘oqlarida shish paydo bo‘ladi, kuylash jarayonida tez charchash kuzatiladi. Shuning uchun bu davrda kuylash faoliyatini tashkil etishda o‘quvchidan katta ma’suliyat talab etiladi.

Tanlangan qo‘shiq materiallari o‘quvchilarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi, ish usullari bolalar ovozini asrash talablariga javob berishi lozim. Buning uchun bolalar ovozini aniq partiyalarda kuylatish muhimdir. Bu davrda o‘qituvchining asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarning musiqa san’atiga, musiqa darsiga bo‘lgan munosabatini har tomonlama o‘rganib, hisobga olish;
2. Musiqaning hayot bilan chambarchas bog‘liqligi, hayotning badiiy aksi ekanligi haqidagi bolalar tasavvurini yanada kengaytirish;

Har bir o‘quvchiga alohida e’tibor qaratishga intilish, uni psixologik- fizologik jihatdan o‘rganish mutatsiyaning boshlanish davri individual tarzda ekanligini hisobga olib, ovoz pardalari belgilash, ishchi diapazonlarini toliqtirmaslik lozim.

6-sinfda vokal-xor ishlari quyi sinflarda hosil qilingan kuylash malakalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan, ya’ni;

1. “Kontilenali” stakatali kuylash malakasini rivojlantirish;
2. Ovoz diapazonlarining o‘rta registrini mustahkamlash;
3. Ovoz diapazoniga mos mashq va qo‘shiqlarni nota yozuviga qarab kuylash;
4. Kuylashda talaffuz anqligi va uning ansambliga erishish;
5. Kuylashda forsirovkaga (zo‘riqishga) yo‘l qo‘ymaslik;
6. Ikki va uch ovozli asarlarni kuylash;
7. Qo‘shiq repertuarida turli mazmun va xarakterli qo‘shiqlarni badiiy jihatdan mukammal bo‘lgan asarlarni kuylatish;

Ovozlarni maromiga tushirib kuylash va nutqni rivojlantirish uchun vokal aytim mashqlariga e’tibor qaratiladi. Mashqlarni ma’lum tizim asosida kuylash muhimdir. Birinchi turdagи mashqlarga turli tonalliklardagi tovush qatorlarini (gammalar) qismlarini yuqorida – pastga va pastdan yuqoriga harakatda kuylash (arpedgio holida ham) mumkin.

Yuqorida aytiganidek bolalarda ovoz diapazoni bir oz kengayib, past (ko‘krak) o‘rta (aralash) va yuqori (bosh) registrlar aniq bilina boshlaydi va bu xususiyatdan o‘qituvchi ikki ovozli kuylash malakalarini tarbiyalash bilan birgalikda olib boriladi. O‘z navbatida bu jarayon o‘quvchilarda eshituv, diqqatni kuylashda mustaqillikni rivojlantiradi va mashqlar diapazonni kengayishi uchun hamda nafas yo’llarini yaxshilanishi uchun, yuqori notalarni ovozda ishslash uchun foydalaniladi.

Bunday mashqlarni kuylashda albatta o‘qituvchi nota yozuvlaridan foydalanishi lozim. Xar bir ovoz partiyasi bunda, ya’ni nota yozuvida alohida rangda berilsa maqsadga muvofiqdir. Masalan: birinchi ovoz qizil, ikkinchi ovoz qora, pastki ovoz ko‘k rangda.

Vokal xor ishlarida triollarni ijro etish uchun katta ahamiyatga ega. Mashqlarni tishga yaqin yengil qisqa ijro etish

Asarning cholg‘u jo‘rligi qo‘sish quyini aniq kuylashga yordam beradi.

Ikkinci turdag'i mashqlarni yirik asarlar-maqom, opera, balet, simfoniya konsertlaridan fragmentlar (qismlar) kuylash hosil qiladi. Shu o'rinda 6-sinf Feruz – I, Savti suvora, Nasrullo I, Ushshoqi Samarqand kabi o'zbek an'anaviy musiqasining nodir namunalar, G.Mushelning "Raqqosa" baleti, Motsartning "Figaraning uylanishi" operasi, L.Betxovinning "Uch qaxramonlik" simfoniyasi, S.Jalilning "I" simfoniyasi, N.Norxo'jayevning "Uvertyura" kabi kompozitorlik musiqa san'atining murakkab va yirik janrlarini o'rganish nazarda tutilgan. Shunday asarlardan baholi qudrat parchalar kuylash yirik asarlarning mazmun doirasini chuqurroq tushunishni, ulardan imotsional ta'sirchanlikni o'stirishga yordam beradi. Xar bir dars mavzusini yoritishda faol yoshlar aro mazmunan yaxlitlikka erishishda salmoqli omil bo'la oladi.

6-sinf musiqa madaniyati dasturiga kiritilgan asarlar aksariyati o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini, o'z vatani tarixidan mag'rurlanish, kelajak ravnaqi uchun xizmat qilishiga da'vat, his-tuyg'ularni tarbiyalashaga xizmat qiladi. Bunday qo'shiqlarga "O'zbekiston madhiyasi" (M.Burhonov) musiqasi, "Yoshlar ramziy qo'shig'i", "Istiqlolim" (A.Mansurov musiqasi), "Yurtim kamoli" (N.Norxo'jayev), "Gulshan diyor-O'zbekiston" (SH.Ramazonov), "Biz tinchlikni istaymiz" (K.Kenjayev) asarlarini misol keltirish mumkin.

Yana bir turkumni "Ey mehribonim", "Mustahzod", "Qari navo" kabi musiqiy folklor asarları tashkil qilinadi. Bu qo'shiqlarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida qancha aytilsa ham oz.

"Yoshlik deydi", "Eh, orzular" (N.Norxo'jayev musiqasi), "Yoshlik yo'llari chaman" (K.Kenjayev), "Chamandagi gullarmiz" (N.Norxo'jayev musiqasi) asarları yoshlikning yirik, beg'ubor orzulari, rang-barang dunyosini aks ettiruvchi qo'shiqlardir.

Ko'rinish turibdiki, 6-sinf uchun mo'ljallangan qo'shiqlar badiiy va mazmun jihatdan rang-barang, ma'lum bir ijrochilik malakalarini talab etadigan, shu bilan birga ular yoshiga mos holda tanlangan.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Qayumov, J. S. "Life in the Shashmaqom." Science and Education 2.Special Issue 1 (2021): 98-105.
2. Қораев, С. Б. (2020). Профессионал таълимда ўқув амалиётларини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари. Academic research in educational sciences, 1(3).
3. Usarov J. Using Teaching Methods for Development Student Competencies // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. - 2019. - Т. 15. - №. 1. - С. 272-274.
4. Usarov J. E. Competent Approach for Teaching Physics in Secondary and Post-secondary Educational Institutions // Eastern European Scientific Journal. - 2016. - №. 3.
5. Ravshanov J. F. The importance of working with terms and concepts in teaching history. - 2020.

REZYUME

Ushbu maqolada musiqa dars jarayonida o'quvchilarni ovozini rivojlantirish, innovatsion faoliyati hamda psixologik bilimdonligi va madaniyati haqida fikr mulohazalar bildirilgan hamda xonxndalik asarlarini o'rgatish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изложены мнения о развитии голоса учащихся, инновационной деятельности, психологических знаний и культуры на уроках музыки, а также информация о преподавании корейских произведений.

SUMMARY

In this article, opinions are expressed about the development of students' voices, innovative activities, psychological knowledge and culture during music lessons, and information about teaching Korean works.

**O'ZBEK MILLIY MAQOM SAN'ATINI YOSH IJROCHILARGA O'RGATISHDA
ETIBOR QARATILISHI LOZIM BO'LGAN JIHATLAR**